

Xizmat xati

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrdagi “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar haqidagi 271-soni qarorining 5-ilovasiga muvofiq, “Shurtan gaz kimyo majmuasi” MChJ ma’muriyati 2023-2024 yillar davomida majmua xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazilganligi uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sug‘urta tashkilotlari bilan shartnomma tuzish uchun tanlov e’lon qiladi. Ushbu tanlovida qatnashish uchun Sizning sug‘urta tashkilotingiz tomonidan quyidagi ma’lumotlarni taqdim etilishi so‘raladi:

- yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma nusxasi;
- faoliyat turi bo‘yicha litsenziya nusxasi;
- sug‘urta kompaniyasining ustavi;
- sug‘urta kompaniyasining hozirgi kundagi umumiy jamg’arma mablag’lar hisobi (ustav fondi);
- sug‘urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan tarif stavkalari to‘g‘risidagi ma’lumot;
- “SAIPRO” reyting agentligi tomonidan aniqlangan moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi to‘g‘risidagi ma’lumot;
- shartnomma nusxasi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlarni hamda sug‘urta qilish maqsadidagi tijorat takliflaringizni pb@sgcc.uz yoki sgcc@sgcc.uz elektron pochta manziliga 2023 yilning 8 may kuniga qadar yuborishlaringizni so‘raymiz.

Ma’lumot uchun “Shurtan gaz kimyo majmuasi” MChJ obyektlarini sanoat xavfsizligi ekspertizasi doirasida identifikasiya qilish natijalariga asosan, **1-tipga mansub 1 ta** va **2-tipga mansub 7 ta** xavfli ishlab chiqarish obyektlari aniqlangan hamda davlat reestrida hisobga olinganligini ma’lum qilamiz.

Qo‘srimcha ma’lumot uchun: +998 75 552 42 18